

Tibbiy diskursdagi kommunikativ yondashuvlar: karantin tajribasi asosida

Abduraxmanova Madina Ulugbekovna

lady.abdurahmanova@bk.ru

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti,
Andijon davlat tibbiyot instituti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada karantin sharoitida shakllangan tibbiy diskursda qo'llanilgan kommunikativ strategiyalar va lingvistik taktikalarning ifodalanish xususiyatlari lingvistik, pragmatik hamda semiotik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida COVID-19 pandemiyasi davrida sog'liqni saqlash organlari, xalqaro tibbiy tashkilotlar va ijtimoiy platformalar orqali tarqatilgan rasmiy axborotlar, ogohlantirishlar, tavsiyalar va ommaviy tibbiy xabarlar tanlab olingan. Tahlil davomida tibbiy matnlar orqali aholiga muhim sog'liqni saqlash axborotlarini samarali yetkazish, ularni xavfli holatlardan xabardor qilish, ijtimoiy mas'uliyat hissini oshirish va sog'lom xulq-atvorni targ'ib qilish kabi kommunikativ maqsadlar o'rganiladi. Maqolada ko'rsatma berish, ishontirish, ogohlantirish va diagnostik savollar asosidagi strategiyalar, shuningdek, ularga mos bo'lgan lingvistik vositalar (buyruq shakllari, ritorik savollar, tavsiya ifodalari) alohida tahlil qilinadi. Bundan tashqari, karantin sharoitida keng qo'llanilgan tibbiy terminlar, barqaror iboralar va ularning semantik, pragmatik hamda etimologik xususiyatlari lingvistik jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy diskurs pandemiya sharoitida jamiyatni axborot bilan ta'minlash vositasi bo'lish bilan birga, ommaviy ongga ta'sir etuvchi, xatti-harakatni boshqaruvchi va ijtimoiy kommunikatsiyani muvofiqlashtiruvchi kuchli platforma sifatida shakllangan.

Kalit so'zlar

Karantin, tibbiy diskurs, kommunikativ strategiya, lingvistik taktika, tibbiy termin, sog'liq, COVID-19

Коммуникативные подходы в медицинском дискурсе на основе опыта карантина

Абдурахманова Мадина Улугбековна

lady.abdurahmanova@bk.ru

*Доцент кафедры узбекского языка и литературы,
Андижанский государственный медицинский институт*

Аннотация

В данной статье анализируются особенности реализации коммуникативных стратегий и лингвистических тактик в медицинском дискурсе, сформировавшемся в условиях карантина. Объектом исследования являются официальные информационные сообщения, предупреждения и рекомендации, распространявшиеся учреждениями здравоохранения, международными медицинскими организациями и через социальные сети во время пандемии COVID-19. Цель анализа — выявление прагматических и лингвистических механизмов, способствующих эффективной передаче медицинской информации, формированию ответственного поведения и повышению общественного сознания. В центре внимания находятся стратегии директивного характера (приказы, инструкции), убеждения, предупреждения, а также диагностические вопросы, используемые для

вовлечения аудитории в коммуникацию. Также рассматриваются устойчивые выражения и терминология, активно применявшиеся в этот период, их семантические, прагматические и этимологические особенности. Показано, что медицинский дискурс в условиях пандемии функционировал не только как средство передачи информации, но и как инструмент воздействия на поведение общества, играя важную роль в координации социальной коммуникации. Исследование подтверждает, что точность, ясность и доступность языка медицинских сообщений имеют решающее значение для эффективности общественного здравоохранения. Таким образом, медицинский дискурс в период карантина можно рассматривать как мощный механизм формирования социальной ответственности и управления общественным мнением в условиях глобального кризиса.

Ключевые слова

Карантин, медицинский дискурс, коммуникативная стратегия, лингвистическая тактика, медицинские термины, здоровье, COVID-19

Communicative approaches in medical discourse: based on the quarantine experience**Madina Ulugbekovna Abdurakhmanova**lady.abdurahmanova@bk.ru

Associate professor, department of the
Uzbek language and literature,
Andijan State Medical Institute

Annotation

This article explores the distinctive features of communicative strategies and linguistic tactics manifested in medical discourse shaped under quarantine conditions. The object of analysis includes official announcements, public health advisories, warnings, and informational messages distributed by health authorities, international medical organizations, and through social media platforms during the COVID-19 pandemic. The research aims to identify pragmatic and linguistic mechanisms used to effectively convey medical information, encourage responsible behavior, and influence public awareness. Key communicative strategies are examined, including directive expressions (commands, instructions), persuasive language, cautionary statements, and diagnostic questions that engage the public in dialogue. Additionally, the study investigates the semantic, pragmatic, and etymological characteristics of medical terminology and fixed expressions widely used during the pandemic. Findings suggest that medical discourse functioned not only as a medium of information delivery but also as a powerful tool for shaping public behavior and facilitating coordinated social communication. The precision, clarity, and accessibility of language in medical messaging proved critical for achieving public health objectives. Overall, the study concludes that medical discourse in quarantine conditions evolved into a communicative platform capable of managing collective awareness, directing social conduct, and reinforcing public responsibility in the face of a global crisis. Such insights contribute to a deeper understanding of the socio-linguistic dynamics inherent in health-related communication during emergencies.

Keywords

Quarantine, medical discourse, communicative strategy, linguistic tactic, medical terminology, health, COVID-19

Kirish

Karantin insoniyat tarixida yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish va nazorat qilish uchun qo'llaniladigan eng qadimiy va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Yuqori yuqumli viruslar, xususan, COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo'ylab jahon sog'liqni saqlash tizimini sinovdan o'tkazdi va ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu holat nafaqat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimlarida, balki kommunikativ jarayonlarda, xususan, tibbiy diskursda ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Karantin sharoitida sog'liqni saqlash organlari tomonidan jamiyatga aniq, tushunarli va ishonchli axborot yetkazish muhim ahamiyat kasb etdi, chunki pandemiya paytida noto'g'ri yoki noaniq ma'lumotlar tarqalishi keng ko'lamli ijtimoiy muammolarga, xususan, sog'liqni saqlashga zarar yetkazishi mumkin edi (World Health Organization, 2020).

Tibbiy diskurs – bu tibbiyot sohasi vakillari, bemorlar va keng jamoatchilik o'rtasida yuzaga keladigan, maxsus lingvistik va kommunikativ vositalar asosida tashkil topgan muloqot shakli. Karantin davrida tibbiy diskurs o'zining kommunikativ strategiyalari va lingvistik taktikalari orqali sog'liqni saqlash bo'yicha bilimlarni yetkazishda, xavfsizlik qoidalarini targ'ib qilishda hamda ijtimoiy ongni shakllantirishda asosiy rolni o'ynadi. Ayniqsa, shifokorlar, sog'liqni saqlash mutaxassislari va davlat organlari tomonidan taqdim etilgan rasmiy axborotlar jamiyatda ishonchni oshirish va odamlarni tavsiya qilingan qoidalarga rioya qilishga undashda muhim vosita bo'ldi (Centers for Disease Control and Prevention [CDC], 2020).

Karantin sharoitida yaratilgan tibbiy matnlar ko'plab kommunikativ strategiyalarni o'z ichiga oladi: ko'rsatma berish, ishontirish, ogohlantirish va diagnostik savollar orqali muloqotni faollashtirish kabi. Shuningdek, ushbu matnlarda ishlatilgan tibbiy terminlar va barqaror iboralar o'zining semantik, etimologik

hamda pragmatik xususiyatlari bilan ajralib turadi (Online Etymology Dictionary, n.d.). Bu esa tibbiy diskursning nafaqat tibbiy ma'lumotlarni uzatish, balki ijtimoiy ongni boshqarishdagi o'rnini yanada kuchaytiradi.

Shu sababli, karantin sharoitida tibbiy diskursdagi kommunikativ yondashuvlarni o'rganish nafaqat lingvistik jihatdan, balki ijtimoiy-psixologik va kommunikativ samaradorlik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot karantin davrida tibbiy diskursda qo'llanilgan kommunikativ strategiyala va lingvistik taktikalarning xususiyatlarini, ularning jamiyat sog'lig'ini yaxshilashdagi rolini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tibbiy diskurs – bu tibbiyot sohasida yuzaga keladigan maxsus kommunikativ tizim bo'lib, u ijtimoiy-madaniy, psixologik va lingvistik omillar ta'sirida shakllanadi. Tibbiy diskurs jamiyatdagi sog'liqni saqlash masalalarini hal qilishda, kasalliklarni tashxislash va davolash jarayonlarida, shuningdek, profilaktika va axborot tarqatishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu boisdan, tibbiy diskursning kommunikativ xususiyatlari va lingvistik strukturasi sohada samarali muloqotni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega (Fairclough, 2003).

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), AQShning Kasalliklarni Nazorat va Oldini olish Markazi (CDC), shuningdek, Cochrane Review kabi xalqaro sog'liqni saqlash institutlari karantin tushunchasini yuqumli kasalliklarning tarqalishini cheklash va nazorat qilish uchun tibbiy ehtiyot chorasi sifatida keng o'rganib, amaliyotda qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. JSST karantin terminini sog'ligi yomonlashmagan, ammo yuqumli kasallik tashuvchisi bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarni boshqa odamlardan ajratish orqali infeksiyaning tarqalishini cheklash jarayoni sifatida ta'riflaydi (World Health Organization, 2020). Bu ta'rifda karantin nafaqat jismoniy

ajratish, balki tibbiy va ijtimoiy nazorat vositasi sifatida ko'riladi, bu esa tibbiy diskursda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar va nutq uslublarining o'ziga xosligini shakllantiradi.

Tibbiy diskursda qo'llaniladigan atamalar va iboralar tibbiyot fanining o'ziga xos lug'atiga kiradi va ularning ko'pchiligi tarixiy-etimologik jihatdan chuqur ildizlarga ega. Masalan, "symptom" so'zi qadimiy yunon tilidan kelib chiqqan bo'lib, kasallikning tashqi belgilarini ifodalaydi; "complication" esa asorat yoki qo'shimcha kasallikni anglatadi. Bu kabi terminlarning semantik qatlami tibbiyot sohasidagi ma'lumotlarning aniq va aniq ifodalanganini ta'minlaydi (Online Etymology Dictionary, n.d.). Shuningdek, "monitor your health" kabi barqaror ifodalar kommunikatsiya jarayonida bemorlarni sog'liqni nazorat qilishga chaqiruvchi, tavsiya xususiyatiga ega iboralar sifatida ishlatiladi.

Adabiyotlarda tibbiy diskursdagi bunday terminologiyaning kommunikativ va aksiologik yuklamalari ham keng o'rganilgan. Kommunikativ jihatdan, ushbu atamalar kasallik va uning davolash usullarini tushuntirishda aniqlik va tushunarlilik yaratadi, bu esa bemorlar va mutaxassislar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish uchun zarurdir (Fairclough, 2003). Aksiologik nuqtai nazardan esa, tibbiy terminlar sog'liqni saqlashning qadriyatlarini, xavfsizlik va ehtiyotkorlik tamoyillarini ifodalaydi, shuningdek, ularning ishlatilishi jamiyatda ishonch va javobgarlik hissini shakllantirishga yordam beradi (Scollon & Scollon, 2001).

Shuningdek, tibbiy diskursda lingvistik taktikalarning (masalan, diagnostik savollar, ogohlantirish va rag'batlantirish) qo'llanilishi sog'liqni saqlash xabarlarini samaradorligini oshiradi. Masalan, diagnostik savollar tinglovchini o'z holatini baholashga undaydi va bu orqali muloqotni faollashtiradi (Brown & Levinson, 1987). Ogohlantirish va rag'batlantirish taktikalari esa xavfsizlik choralarini qabul qilish va sog'liqni saqlash

qoidalariga rioya qilish uchun ijtimoiy motivatsiya yaratadi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tibbiy diskursning nafaqat so'zlashuv va matn darajasida, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda qanday shakllanishi, uning kommunikativ strategiyalari va lingvistik vositalari orqali jamiyat sog'lig'iga ta'sir ko'rsatishi masalalarini yoritib beradi. Bu esa o'z navbatida, karantin sharoitida tibbiy diskursni o'rganishning muhimligini va uning tahlil usullarini aniqlashga yordam beradi (Cochrane Review, 2020).

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda karantin davrida yaratilgan tibbiy matnlar lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida rasmiy tibbiy tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan axborotlar, ogohlantirishlar, tavsiyalar va ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ommaviy xabarnomalar tanlab olindi. Tahlil nutq strategiyalari va lingvistik taktikalarning qo'llanilishiga qaratildi.

Strategiyalar quyidagilarga bo'lindi:

- Ko'rsatma berish strategiyasi (directive strategy);
- Ishontirish strategiyasi (persuasive strategy);
- Ogohlantirish va rag'batlantirish taktikalari;
- Diagnostik savollar orqali muloqot strategiyasi.

Tahlil va Natijalar

Ko'rsatma berish taktikasi: Karantin sharoitida tibbiy matnlarda ko'p hollarda "maska taqing", "qo'llarni yuving", "shifokorga murojaat qiling" kabi buyruq shakllari ishlatilgan. Bu taktika sog'liqni saqlash organlari tomonidan jamiyatni muayyan xatti-harakatlarga yo'naltirish uchun qo'llanilgan. Misollar:

- "If you test positive for COVID-19: avoid contact with the frail, tell your surroundings..." (CDC, 2020)
- "Follow protective measures and monitor your health." (Online Etymology Dictionary, n.d.)

Ishontirish strategiyasi: Ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirish va aholining ishonchini mustahkamlash uchun ishlatiladi. Bunda odatda ehtiyot choralarining samaradorligi haqida raqamli dalillar yoki ijobiy misollar keltiriladi.

- "Quarantine may lead to substantial reductions in new COVID 19 cases and deaths." (Cochrane Review, 2020)

Tibbiy terminlar va ularning lingvistik xususiyatlari: Tibbiy diskursda ishlatilgan terminlar ko'pincha fanlararo xarakterga ega bo'lib, ularning aksariyati umumiy leksikaga kirib borgan. Masalan:

- "virus" – ilgari yiringli suyuqlik ma'nosida ishlatilgan bo'lsa, hozirgi zamonda bu infeksiya agentni bildiradi (Online Etymology Dictionary, n.d.).
- "symptom", "complication", "frail", "test" kabi terminlar tibbiy ma'nolar bilan boyitilgan.

Diagnostik savollar: Tibbiy diskursda ritorik savollar vositasida muloqotni faollashtirish, e'tiborni jalb qilish holatlari mavjud:

- "What are the symptoms of COVID-19 and what actions to take?" (Brown & Levinson, 1987).

Xulosa va Takliflar

Ushbu tadqiqot natijalari karantin sharoitida shakllangan tibbiy diskursning funksional va kommunikativ jihatdan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan nutq turi ekanligini tasdiqlaydi. Karantin davrida tibbiy diskursda ko'rsatma berish, ogohlantirish, ishonch uyg'otish va motivatsion yondashuvlar kabi kommunikativ strategiyalar keng qo'llanilib, jamiyatda sog'liqni saqlashning samarali boshqarilishiga xizmat qilganligi aniqlanadi. Tibbiy atamalar, barqaror iboralar va murakkab sintaktik konstruktsiyalar nafaqat sog'liqni saqlash maqsadlarini amalga oshirishda, balki ijtimoiy ongni boshqarishda ham samarali vosita sifatida ishlatilgan. Shu bilan birga, tibbiy diskurs jamiyat a'zolarining xavfsizlik qoidalariga rioya qilishini rag'batlantiruvchi, ishonchni mustahkamlovchi va ijtimoiy

mas'uliyatni oshiruvchi kommunikativ platforma vazifasini o'tagan.

Karantin davridagi tibbiy diskurs lingvistik va pragmatik jihatdan yuqori darajada moslashuvchanlik ko'rsatib, turli kommunikativ vazifalarni bajarishda samaradorlikni ta'minladi. Masalan, ko'rsatma berish strategiyasi aniq va qat'iy buyruq shaklida bo'lib, odamlarda muayyan harakatlarni amalga oshirishga undadi; ishontirish strategiyasi esa ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va xavfsizlik choralariga amal qilishga motivatsiya yaratdi. Ogohlantirish va rag'batlantirish taktikalari esa xavf-xatarlar haqida xabardorlikni oshirib, xavfsizlik choralarini qabul qilishga turtki berdi. Shuningdek, diagnostik savollar yordamida tinglovchilarning faolligi va sog'liq holatiga doir o'z-o'zini baholash jarayoni faollashtirildi, bu esa muloqotning ikki tomonlama samaradorligini ta'minladi.

Takliflar:

- *Terminologiyani soddalashtirish va tushunarli qilish:* Karantin sharoitida tibbiy diskursda ishlatiladigan terminologiyani keng jamoatchilik uchun yanada soddaga va tushunarli shaklga keltirish bo'yicha tizimli ishlanmalar olib borilishi zarur. Bu, o'z navbatida, sog'liqni saqlash bo'yicha ma'lumotlarning jamoatchilik tomonidan to'g'ri qabul qilinishini va amaliyotga joriy etilishini ta'minlaydi. Terminlarning semantik aniqligi va lingvistik jihatdan qulayligi, shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekstga moslashuvi kengaytirilishi lozim.
- *Kommunikativ strategiyalarni lingvistik asosda tanlash:* Sog'liqni saqlash kampaniyalarida qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar lingvistik va pragmatik tahlillar asosida shakllantirilishi tavsiya etiladi. Bu yondashuv sog'liqni saqlash xabarlarining samaradorligini oshirish, ijtimoiy ongni boshqarishda yanada maqsadga muvofiq mexanizmlar yaratish imkonini beradi. Xususan, kommunikativ strategiyalarning turli

auditoriylar (yosh, kasb, madaniyat) uchun moslashuvchanligi va ularning psixologik qabul qilinishi o'rganilishi lozim.

- *Tibbiy diskurs va muomala uslublari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tadqiq etish:* Karantin holatlarida yuzaga kelgan tibbiy diskurs bilan ijtimoiy muomala uslublari o'rtasidagi lingvistik va kommunikativ o'xshashliklar hamda farqlar alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida kengroq o'rganilishi zarur. Bu yo'nalish tibbiy diskursning ijtimoiy psixologik aspektlarini, shuningdek, kommunikativ samaradorlik va muomala normalarini yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

- *Axborot tarqatishda multi-kanallilikni ta'minlash:* Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va rasmiy veb-saytlar orqali tibbiy diskursning kommunikativ strategiyalarini birlashtirish orqali ma'lumotlarning keng jamoatchilikka tez va aniq yetkazilishi ta'minlanishi kerak.

Ushbu takliflar amaliyotga joriy etilganda, kelgusida sog'liqni saqlash sohasidagi kommunikatsiyalar yanada samarali, tushunarli va ijtimoiy jihatdan maqbul bo'lishi ta'minlanadi, bu esa pandemiyalar va boshqa global sog'liq muammolariga qarshi kurashda muhim omil bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press.
2. Centers for Disease Control and Prevention. (2020). *Quarantine and isolation*. U.S. Department of Health & Human Services. <https://www.cdc.gov>
3. Cochrane Review. (2020). *Quarantine alone or in combination with other public health measures to control COVID-19: A rapid review*. <https://www.cochranelibrary.com>
4. Fairclough, N. (2003). *Analyzing discourse: Textual analysis for social research*. Routledge.
5. Online Etymology Dictionary. (n.d.). Virus, symptom, test, hygiene. In *Online etymology dictionary*. Retrieved September 25, 2025, from <https://www.etymonline.com>
6. Scollon, R., & Scollon, S. W. (2001). *Intercultural communication: A discourse approach* (2nd ed.). Blackwell.
7. World Health Organization. (2020). *Coronavirus disease (COVID-19) advice for the public*. <https://www.who.int>